

---

## QABULDA MUROJAATLAR IJOBIY HAL ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimining birinchi o'rinbosari K.Umarovning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Unda 18 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 10 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 2 tasi nazoratga olindi. 6 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

2024-09-25 16:38:20